



ON THE USE OF DESCRIPTIVE WORDS IN SCIENTIFIC AND FORMAL METHODS

Farzona Norimboyeva¹, Scientific supervisor: prof. S.A.Karimov²

¹ SamSU II course master's degree

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4762433>

ARTICLE INFO

Received: 1st May 2021
Accepted: 5th May 2021
Online: 10th May 2021

KEY WORDS

Scientific style, formal style,
character, quality, form,
glossary, limitation,
firmness, accuracy.

ABSTRACT

This article discusses the use of denotative and connotative meanings in scientific and formal styles.

ILMIY VA RASMIY USLUBLARDA BELGI BILDIRUVCHI SO‘ZLARNING QO‘LLANILISHIGA DOIR

Farzona Norimboyeva¹, Ilmiy rahbar: prof. S.A.Karimov

¹ SamDU II kurs magistranti

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 1-May 2021
Ma'qullandi: 5-May 2021
Chop etildi: 10-May 2021

KALIT SO‘ZLAR

Ilmiy uslub, rasmiy uslub,
belgi, sifat, ravish, izohli
lug‘at, chegaralanganlik,
qat‘iy qolipga asoslanganlik,
aniqlilik.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ilmiy va rasmiy uslublarda belgi bildiruvchi so‘zlarning ishlatishi, denotativ va konnotativ ma‘nolari haqida so‘z yuritiladi.

Ilmiy uslub dalilий ma‘lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga asoslanuvchi, har bir fan sohasining o‘ziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniq va mantiqiy izchil shaklda bayon qiluvchi uslub bo‘lsa, rasmiy uslub esa adabiy tilning yozma rasmiy shakliga xos bo‘lib, muayyan nutqiy qolip, qat‘iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga ega bo‘lgan nutq uslubidir. Bu uslublarda fikr aniq va mantiqli bo‘ladi. Ilmiy uslubda fan-tenika, madaniyat va san‘at sohasida yoziladigan monografiya,

darslik, ilmiy-texnik informatsiyalar, turli to‘plam va jurnallardagi ilmiy maqolalar yozilgani, har bir fanning o‘ziga xos ilmiy terminlaridan va formulalaridan foydalanilgani holda, rasmiy uslub davlat arboblari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarda, idora, korxonalar, muassasalarning rasmiy ish yuritish jarayonlarida, shaxslarning ariza, tilxat, ishonch qog‘ozi singari ish yuritish hujjatlarida qo‘llanilib, yuridik va diplomatik



munosabatlarda, davlat idoralari, sudlar, savdoga doir o'zaro muomalalarda aloqa qilish uchun ishlatiladi. Shunga ko'ra, bu stilda yuridik qonun moddalari, diplomatik murojaatnomalar, notalar, hukumat idoralarning qarorlari, instruksiyalar, buyruqlar, shartnomalar, rasmiy e'lon va xabarlar, yozishmalar va shu kabilar yoziladi.¹ Mazkur uslublarga oid matnlar soha mutaxassislarigagina mo'ljallangan bo'ladi.

Ilmiy uslubda belgi bildiruvchi so'zlarni tahlil qilish uchun S.A.Karimov, Sh.M.Maxmatmurodov, O.N.Karimovlar muallifligida 2003-yilda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari talabalari uchun nashr qilingan "Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish" o'quv qo'llanmasi, rasmiy uslub uchun esa "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonun, "O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonuni, "Jinoyat kodeksi", "Mehnat kodeksi" asos qilib olindi.

Belgi bildiruvchi so'zlar tilimizda faol ishlatiladi, ammo hamma uslublarda ham emas. Chunki ilmiy va rasmiy uslublar chegaralanganlik, qat'iy qolipga asoslanganlik, aniqliligi bilan boshqa uslublardan farqlanadi. Shuning uchun ham mazkur leksemalar bu uslublarda aniq maqsad yo'lida qo'llaniladi. Quyida yangi, yaxshi, ijobiy, kabi leksemalarning mazkur uslublarda ishlatilish o'rinlari berilgan.

Yangi so'zining mazkur uslublarda qo'llanilishi:

Ilgari bo'lmagan, endi yuzaga kelgan, kelayotgan, keladigan ma'nolarda ilmiy uslubda ham, rasmiy uslubda ham baravar qo'llaniladi: O'qitishning ilg'or va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik

va axborot vostalarini o'quv jarayoniga joriy etish... ("Ta'lim to'g'risida"gi Qonun 26-modda, keyingi o'rinlarda TTQ deb beriladi), Hukm qilingan shaxsning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organning taqdimi bilan sud sinov muddadi davomida unga yuklatilgan majburiyatning hammasini yoki bir qismini olib tashlash yoki uning zimmasiga yangi majburiyatlar yuklashi ham mumkin. (JK 72-modda), "Davlat tili haqida"gi Qonun o'zbek tilining amalda bo'lishi uchun yangi istiqbollarni ochib berdi. ("Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish" kitobi 5-bet, keyingi o'rinlarda NMDT deb beriladi), Binobarin, o'zbek tilining imloviy me'yorlari hozirgacha ana shu qoidalarga amal qilmoqda va bu jarayon, ya'ni kirill alifbosidan foydalanish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonunining yangi tahririni amalga kiritish tartibi to'g'risida"gi 1995-yil 21-dekabr qaroriga asosan 2005-yilgacha davom etdi. (NMDT 4-bet) Ushbu misollarda yangi leksemasi sifat turkumiga oid bo'lsa, quyidagi misollarda ravishga xos vazifa bajargan: Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishning oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo'ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqqiy ta'sir chorasi qo'llanilishi kerak. ("Jinoyat kodeksi" 7-modda, keyingi o'rinlarda JK tarzida beriladi), Shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etish retsidiiv jinoyat deb topiladi. (JK 34-modda), Agar mahkum hukm chiqarilganidan keyin jazoni to'la o'tamay turib, yangi jinoyat sodir etsa yangi hukm bo'yicha tayinlangan jazo muddati ilgari hukm yuzasidan o'talmay qolgan jazo muddatini to'la yoki qisman qo'shadi. (JK 60-modda), Agar ixtiro texnika taraqqiyoti darajasidan

¹ Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1983. –B.20



ma'lum bo'lmasa, u yangi hisoblanadi. ("Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonun 6-modda, keying o'rinlarda IFMQ deb beriladi)

Hali tutilmagan yoki juda kam ishlatilgan, asl holatini yo'qotmagan, eskirmagan ma'nolarida mazkur uslublarda baravar qo'llaniladi. Agar ixtiro sifatida ko'rsatilgan obyekt yangi, ixtirolik darajasiga ega va uni sanoatda qo'llash mumkin bo'lsa, u huquqiy muhofaza qilinadi. (IFMQ 7-modda), Mahsulotni olish usuliga berilgan patentning amal qilishi aynan shu usul yordamida olingan mahsulotga ham tatbiq etiladi. Bunda aksini isborlovchi dalillar bo'lmasa, bu yangi mahsulot patentlangan usulda olingan deb hisoblanadi. (IFMQ 30-modda), ...har kimga kasbga va ishga ega bo'lishda, mehnat qilish va ish bilan ta'minlanish shart-sharoitlarida, mehnatga haq olishda, xizmat pog'onasidan yuqorilab borishda teng imkoniyatlar yaratishni; yangi kasbga (mutaxassislikka) bepul o'qitishni mahalliy mehnat organlarida yoki uarning yo'llanmasi bilan boshqa o'quv yurtlarida stipendiya to'labmalakasini oshirishni... ("Mehnat kodeksi" 58-modda, keying o'rinlarda MK deb beriladi), Tilda yashab turgan so'z va iboralar ularning o'rniga kelayotgan yangi tushunchalarga osonlikcha o'rnini bo'shatib bermaydi. (NMDT 6-bet), Mana bu "Meni yangi ishga yo'rgaklagan hamqishloqlarim, shuningdek, ustoz Ma'rifat Rofiyevalar foydali maslahat va amaliy yordamlarini mendan ayamay, kasbni o'zlashtirib olgunimcha madadkor bo'lib turdilar" misolidagi yo'rgaklamoq so'zi umuman noto'g'ri qo'llanilgan. (NMDT 6-bet)

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, uslub nuqtayi nazardan yangi leksemasi faqat o'zining denotativ ma'nosini namoyon qilgan. Chunki ilmiy va rasmiy uslublarda qo'llangan so'zlarda konnotatsiya hodisasi deyarli kuzatilmaydi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da mazkur leksema faqat

endigina, hozirgina ma'nolarida qo'llangandagina ravish turkumiga oidligi, ilgari bo'lmagan, endi yuzaga kelgan ma'nolarda sifatga tegishli ekanligi aytilgan. Ammo quyida berilgan misollarda boshqacha: Yangi tug'ilgan bolalarni bevosita tug'ruqxonadan farzandlikka olgan yoki bolalarga vasiy qilib tayinlangan shaxslarga bola farzandlikka olingan (vasiylik belgilangan) kundan boshlab, bola tug'ilgan kundan e'tiboran ellik olti kalendar kun...ta'tillar beriladi. (MK 234-modda), Tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan yangi aniqlangan obyektlar Madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga kiritilishi to'g'risidagi masala hal qilingunga qadar ushbu Qonun talablariga muvofiq muhofaza qilinishi kerak. ("Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonun 12-modda, keyingi o'rinlarda MMOMQ deb beriladi) Yangi tug'ilgan bola, yangi aniqlangan obyekt birikmalaridagi yangi so'zi hozir, endi ma'nolarini berayotgani yo'q. Chunki bular yangi kelgan, yangi chiqqan birikmalaridan farqlanadi. Shuning uchun ushbu misollardagi mazkur leksemaga nisbatan ma'no sifatga, o'rin esa ravishga xos deyish mumkin.

Ma'lum bir vaqt oralig'i ma'nosida rasmiy uslubda qo'llaniladi: ...Yangi muddatga saylanmaganligi (tanlov bo'yicha o'tmaganligi) yoxud saylanishda (tanlovda) qatnashishni rad etganligi munosabati bilan... (MK 97-modda)

Boshqalardan farq qiladigan, o'zgacha ma'nosida ilmiy uslubda: Birikma tarkibidagi ma'nosi zid so'zlarning har birining ma'nosi saqlab qolingan holda yangi bir mantiqiy ma'no kelib chiqadi va ular badiiy san'atlar doirasida oksyumoron deb ataladi. (NMDT 25-bet)

Davomiylik, navbatdagi ma'nosida: Yangi tahrirdagi Qonunning 9-moddasida



davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ishning davlat tilida yuritilishi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi alohida ta'kidlab o'tildi. (NMDT 65-bet)

O'rganilayotgan leksema rasmiy uslubda faqat (JKda) yangi jinoyat sodir etmoq, yangi majburiyatlar va yangi hukm chiqarmoq birikmalari tarkibidagina qo'llanilgan.

Demak, yangi leksemasi ilmiy va rasmiy nutq uslublari doirasida sifatda ham, ravishda ham bema'lol qo'llanila oladi. Bu ikki qo'llanishda ham o'zing denotativ va konnotativ ma'nolarini namoyon eta oladi.

Yaxshi leksemasining mazkur uslublarda qo'llanilishi:

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da mazkur leksemaning a) ijobiy sifatga ega bo'lgan, biror talabga to'la javob beradigan, kishiga yoqadigan, ma'qul bo'ladigan. Yaxshi kishi. Yaxshi ot. Yaxshi yemoq. Yaxshi kiymoq. Kundan kunga Zaynabning susayib, o'ziga begonalashib borganini yaxshi anglar edi. A.Qodiriy, “O'tgan kunlar”. Yaxshi gapirib ham ko'rdi, yomon gapirib ham ko'rdi, foydasi bo'lmadi. A.Qahhor, “Qo'shchinor chiroqlari”, b) modal so'z. Rozilik, ma'qullash ma'nosini bildiradi; xo'p bo'ladi, durust, ma'qul. Yaxshi, xozir etib boraman. Yaxshi, men yana o'ylab ko'raman. Yaxshi. Va'da ham berayin, ammo sen unashmay tur! A.Qodiriy, “O'tgan kunlar” d) **Yaxshi ko'rmoq:** 1) biror narsani, kishini yoqtirmoq, ma'qul ko'rmoq. Suhbatni yaxshi ko'radi. Ozoda kiyinishni yaxshi ko'raman. Bu kambag'al xasta yigitni Yo'lchi yaxshi ko'rar, ahvoliga ko'nglidan qayg'urar edi. Oybek, Tanlangan asarlar. 2) muhabbat qo'ymoq, sevmok. Zulfiqor ustodning qizini nihoyatda

yaxshi ko'rib qolganini do'stiga aytib qo'ygan edi. Mirmuhsin, “Me'mor”.²

Kishiga yoqadigan, ma'qul bo'ladigan ma'nolarida: Xullas, ma'naviyati va madaniyati shakllangan xalqlar uchun natiqlik san'ati inson faoliyatida muhim omillardan sanalgan hamda asosiy e'tiborni nutqning yaxshi bo'lishiga qaratgan o'z nazariyotchilari ham bo'lishgan. (NMDT 25-bet) Yaxshi so'zi yuqoridagi misolda qo'shma fe'l tarkibiy qismi sifatida kelib, o'z semantik ma'nosini asoslamogda. Mazkur leksema sifat turkumiga oid bo'lganda quyidagi semantik ma'nolarni anglatadi:

Biror talabga to'la javob beradigan ma'nosida: Yaxshi, namunaviy nutq hozirgi o'zbek adabiy tili talablariga mos holda shakllangan bo'lishi, turli g'ayriadabiy va g'ayri axloqiy til elementlaridan holi bo'lishi kerak. (NMDT 22-bet)

O'z ishining ustasi, qobiliyatli ma'nolarida: Shcherba me'yordan chekinmagan yozuvchining bo'lmasligi, chekinilmasa asarning zerikarli bo'lishi haqida yozib, “Insonda me'yorni his qilish xususiyati tarbiyalanga bo'lsa, u yaxshi yozuvchilardagi asosli chekinishlarni butun go'zalligi bilan his qila boshlaydi”, deya ta'kidlagan edi. (NMDT 101-bet)

O'rinli, munosib ma'nosida: Stilistika – tilda mavjud bo'lgan barcha stilistik vositalar ... dan, ma'lum tipdagi forma, so'z va konstruksiyalardan qaysi birini qo'llash muvofiq ekanini, yaxshi va eng muvofiq vositasini tavsya etadi, norma qilib belgilaydi, nutqning turli stilistik qatlamlarida qo'llanadigan vositalarni belgilab beradi... (NMDT 70-bet)

Biror sohani mukammal egallash, bilish ma'nosida: Ana shu sabablarga ko'ra

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилдди. 5-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. –Б.127



soʻz qoʻllash aniqligining chegarasini belgilash bir muncha murakkab ish boʻlib, u tilni yaxshi bilishni va uning vazifaviy uslublar doirasida qoʻllanish imkoniyatlarini oʻrganishni taqozo etadi. (NMDT 25-bet)

Yuzaki emas chuqurroq, mukammalroq maʼnosida: Masalaning mohiyatini yanada yaxshiroq va tezroq anglash uchun dastlab tildan tashqarida boʻlgan omillar haqida mulohaza yuritish maqsadga muvofiq boʻladi. (NMDT 55-bet) Bu oʻrinda mazkur leksema ravish turkumiga mansubdir.

Teran, aniq maʼnosida: Tinglovchilar sizning tasviringizsiz ham aqli, yuragi, fikri bilan shu predmetni yaxshiroq kuzatadi. (NMDT 42-bet), Sharq tarixida juvonmardlik, tasavvuf, malomatiylik kabi bir necha qudratli taʼlimotlar hukm surgani yaxshi maʼlum, albatta. (NMDT 102-bet)

Boshqalariga qaraganda maʼqul, oʻrinli maʼnosida: Badiiy matnlar tahririning oʻziga xos nozik tomonlari mavjud boʻlib, bunda asosan soʻz yoki boshqa birlikning estetik taʼsir kuchi inobatga olinadi, qaysi element ana shu vazifani yaxshiroq bajara olishi mumkinligi muhim hisoblanadi. (NMDT 103-bet)

Mukammal, maromida maʼnosida: Muomala madaniyatining yaxshi egallanishi kishilarning bir-birlarini hurmat qilishi va eʼzozlashlariga, asablarini asrash va vaqtlarini tejashga olib keladi. (NMDT 139-bet)

Ijobiy leksemasining mazkur uslublarda qoʻllanilishi:

Mazkur leksemaning izohli lugʻatda maʼqul, maqbul deb topilganlikni ifodalovchi; maʼqullovchi, yoqlovchi; maʼqullashga, yoqlashga, maqtovga sazovor boʻlgan; yaxshi, foydali; yaxshi fazilatlariga, xislatlariga ega boʻlgan; ibratli³ kabi maʼnolari berilgan. Bu

soʻz ilmiy uslub doirasida sifat va ravish turkumlarida baravar qoʻllanilib, sintaktik jihatdan gapda aniqlovchi va hol vazifasida keladi.

Yaxshi, foydali maʼnosida sifatda ham, ravish oʻrnida ham qoʻllanila oladi: Ijobiy tomoni – adibning yaʼni sheva vakili boʻlgan ijodkorlarning sharofati bilan maʼlum soʻz adabiyotga kirib qolib, meʼyorlashishi mumkin. (NMDT 39-bet), Taqrizda himoya yoki nashrga tavsiya etilgan atroflicha, batafsil munosabat bildiriladi, uning ijobiy va salbiy tomonlari xolisona koʻrsatib oʻtiladi, himoya yoki nashrga tavsiya etilish-etilmaslik haqidagi munosabat aniq bayon etiladi. (NMDT 178-bet), Oʻrinda ishlatilgan soʻzlar, yorqin va dildan bayon etilgan nutq bamaʼni fikr har doim odamlarning xulq-atvoriga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. (NMDT 53-bet)

Maqbul deb topilganlikni ifodalovchi, maʼqullovchi, yoqlovchi maʼnolarida ham ikki turkum doirasida baravar qoʻllanila oladi: Shuning uchun ham tilda varvarizmlarning ishlatilishi ijobiy hodisa sifatida emas, balki meʼyorning buzilishi deb qarash va ularni nutqda qoʻllamaslik lozim. (NMDT 39-bet), Fan taraqqiyotining hozirgi bosqichida shakllangan sotsiologiyat, etnologiyat, psixologiyat, madaniyatshunoslik singari fanlarning hamkorligigina bu muammolarni ijobiy hal qilish imkonini beradi. (NMDT 54-bet), Shuning uchun hatto jahl chiqib turgan paytda ham muloyim boʻlishga harakat qilish, mansabdor shaxs, rahbar va boshliqning oldiga biror masalani hal qilish maqsadida borganda uning kayfiyatiga qarab ish tutish uning ijobiy hal boʻlishiga koʻmaklashadi. (NMDT 139-bet)

Mazkur leksema matn tarkibidagi maʼnosini oʻzi bogʻlanib kelayotgan soʻz

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилдди. 2-жилд. — Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. —Б.201



orqali ifoda etadi. Predmetni ifodalovchi soʻzlar bilan kelganda sifat, harakat-holatni ifodalab kelganda ravishga xos maʼno kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, borliqdagi narsa-hodisalar bir-biri bilan uzviy bogʻliqlikda fanning maʼlum chegarasida kesishadi. Belgi bildiruvchi soʻzlar ham

qaysidir nutq uslubida bir-biriga bogʻliq maʼno anglatadi. Yuqoridagi misollarda bunga amin boʻldik. Demak, yangi, yaxshi, ijobiy leksemalarsi ilmiy va rasmiy nutq uslublari doirasida sifat va ravishda bemaolol qoʻllanila oladi. Bu ikki qoʻllanishda oʻzing denotativ va konnotativ maʼnolarini namoyon eta oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилдли. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006.
2. *Shomaqsudov A.* va boshqalar. Oʻzbek tili stilistikasi. –Toshkent: Oʻqituvchi, 1983. –B.20